

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

AKT sohasida kasb ta'limi
fakulteti dekani

A. Igamberdiev

9.04. 2025 yil

“TA‘LIM NAZARIYASI” fanidan

SILLABUS

Kunduzgi ta'lim uchun

Bilim sohasi: 600000 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Ta'lim sohasi: 610000 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Ta'lim yo'nalishlari: 60611300 - AKT sohasida kasb ta'lim

Toshkent – 2025

Fan nomi:	Ta'lim nazariyasi
Fan turi:	Mutaxassislik tanlov fan
Fan kodi:	LRNT16MBK
Bosqich:	3
Semestr:	5
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	180
Ma'ruza	42
Amaliy mashg'ulotlar	30
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	108
Sinov birligi miqdori:	6
Baholash shakli:	Imtixon
Fan tili:	O'zbek

Fanni maqsadi (FM)

FMI	Ta'lim nazariyasi o'quv kursida ta'lim jarayonining nazariy asoslari, mazmuni, prinsiplari va metodlarini chuqur anglash hamda ularni amaliyotda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish ta'lim tushunchasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va roli haqida tasavvur hosil qilish. Shuningdek, zamonaviy didaktika yondashuvlarini tushuntirish, o'qitish, o'rgatish va o'zlashtirishning o'zaro bog'liqligini o'rganadi.
------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Kursga qo'yiladigan boshlang'ich talablar

1.	Mazkur fanni o'zlashtirish fanlami uzviylikini inobatga olgan holda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'rganishda olingan bilimlarga asoslanadi.
-----------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Ta'lim natijalari (TN)

TN1	Talabalarda ta'lim jarayonini tashkil qilishda tayanch me'yoriy xujjatlarning ahamiyati va ulardan to'g'ri foydalanish, o'quv rejaning tuzilishi va uni o'quv jarayonida qo'llay olish, ta'lim yutuqlarini tahlil qilish va baholash usullari tug'risida tasavvurga ega bo'ladilar;
TN2	Respublikamiz ta'lim tizimining rivojlanish tarixi, ilmiy-uslubiy asoslari haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Ta'lim nazariyasi

TN3	O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanish konsepsiyalari o'rganadi va ta'lim to'g'risidagi qonun bilan taqqoslay oladi.
-----	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)		soat
M1	Ta'lim nazariyasi nima? Nazariya nima? Nazariyalar qanday yaratiladi va ular qanday qilib asoslanadi va isbotlanadi? Ta'lim (o'rganish) nazariyasi nima? Ta'lim nazariyalarining qanday asosiy toifalari mavjud?	4
M2	Behaviorizm Ushbu mashg'ulot behaviorizmga tarixiy va amaliy nuqtai nazardan yondashadi. Mashg'ulot yakuniga kelib, talabalar Torndayk, Uotson, Pavlov va Skinner kabi asosiy behavioristik nazariya vakillarining g'oyalari bilan tanish bo'ladilar. Talabalar zamonaviy o'qitish va o'rganish amaliyotlarida behavioristik nazariyaning qanday qo'llanilishini o'rganadilar.	4
M3	Ijtimoiy kontekstda o'rganish Ushbu mashg'ulotda madaniyat va jamiyat o'zaro ta'sirining ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Mashg'ulot yakunida talabalar Vygotsky va Bandura kabi asosiy ijtimoiy o'rganish nazariyotchilarining g'oyalari bilan tanishadilar. Talabalar ijtimoiy o'rganish nazariyasiga asoslangan zamonaviy o'qitish va o'rganish amaliyotlarini o'rganadilar.	4
M4	Kognitivizm Ushbu mashg'ulotda o'rganish – bu inson ongida axborotni qayta ishlash jarayoni bo'lib, natijada shaxsning xatti-harakati, e'tiqodlari va tajribani tasniflash usullarida o'zgarishlar yuz berishi tushunchasi tahlil qilinadi. Mashg'ulot yakuniga kelib, talabalar kognitivizm yo'nalishidagi asosiy nazariyotchilar – Piaget, Bandura va Bruner g'oyalari bilan tanish bo'ladilar. Biroq mashg'ulotda alohida e'tibor talabalar tomonidan Piagetning "rivojlanish bosqichlari" va "sxema shakllanishi" haqidagi murakkab nazariy tushunchalarni chuqur anglab olishiga qaratiladi.	4
M5	Konstruktivizm Ushbu mashg'ulotda o'quvchilarning dunyo haqidagi ichki tushunchani qanday shakllantirishi tahlil qilinadi. Mashg'ulot davomida til va o'rganish o'rtasidagi munosabat konstruktivistik nazariyotchilar nuqtai nazaridan o'rganiladi. Alohida e'tibor Brunemning "kashfiy o'rganish" (Discovery Learning) nazariyasini tahlil qilishga qaratiladi. Talabalardan ushbu nazariyani Piaget,	4

	Vygotsky va Bandura kabi boshqa nazariyotchilarning ishlari bilan taqqoslab, tanqidiy baholash kutiladi.	
M6	<p>Psyxoanaliz</p> <p>Ushbu mashg'ulotda insonlar psixososial rivojlanish bosqichlaridan o'tishi haqidagi tamoyil o'rganiladi.</p> <p>Mashg'ulot yakunida talabalar Freyd, Yung va Erikson kabi asosiy nazariyotchilarning ishlari bilan tanish bo'ladilar.</p> <p>Alohida e'tibor Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasini tahlil qilishga qaratiladi. Talabalar, shuningdek, psixososial nazariyaga asoslangan zamonaviy ta'lim va o'rganish amaliyotlari bilan ham tanishadilar.</p>	4
M7	<p>Gumanizm</p> <p>Ushbu mashg'ulotda gumanistik yondashuv asosida inson rivojlanishining asosiy maqsadi – o'zini ro'yobga chiqarish (self-actualisation) ekani o'rganiladi. Mashg'ulot yakunida talabalar Maslow, Mezirow, Montessori va Rogers kabi asosiy gumanistik nazariyotchilarning ishlari bilan tanish bo'ladilar. Talabalar ushbu nazariyotchilarning "o'quvchi markazida bo'lgan ta'lim", "o'rganishga yaxlit (holistik) yondashuv" va "transformativ (o'zgaruvchan) o'rganish" kabi tushunchalarni qanday talqin qilganliklarini o'rganadilar. Shuningdek, gumanistik nazariyaning amaliyotda qanday qo'llanilayotganiga oid zamonaviy keystadilar (misollar) taqdim etiladi va ular tahlil qilinadi hamda baholanadi.</p>	4
M8	<p>Ekologik nazariya</p> <p>Ushbu mashg'ulotda barcha o'quvchilar doimo o'zgarib boruvchi va madaniy jihatdan boy kontekstlarda ta'lim olishini tushuntiruvchi g'oyalar o'rganiladi. Mashg'ulot yakunida talabalar Bronfenbrenning "Inson rivojlanishining ekologiyasi" nazariyasi hamda uning inson rivojlanishiga oid ekologik modeli bilan tanishadilar. Talabalardan Bronfenbrenner nazariyasini tahlil qilish hamda unga Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi kabi bog'liq yondashuvlar nuqtai nazaridan baho berish kutiladi.</p>	4
M9	<p>Zamonaviy nazariyalar</p> <p>Ushbu mashg'ulotda ta'lim nazariyasidagi so'nggi tendensiyalar o'rganiladi hamda bu nazariyalar 21-asrda o'quvchining shaxsiyati (identiteti) va mustaqilligi qanday tushunilayotgani, unga qanday qarshiliklar mavjudligi va u qanday yangicha talqin qilinayotgani haqida qanday xulosalar berishini tahlil qiladi.</p>	4

Ta'lim nazariyasi

M10	21-asrda ta'lim olish Ushbu mashg'ulotda 21-asr o'quvchilaridan 20-asrga nisbatan yangicha va moslashuvchan tarzda o'rganishni talab qilishi g'oyasi o'rganiladi. Talabalardan kurs davomida o'rganilgan turli ta'lim nazariyalarini tahlil qilib, bugungi ta'lim kontekstida qaysi nazariyalar eng dolzarb va qadrlidir, degan savolga shaxsiy fikr va baholarini bildirish so'raladi.	6
Jami		42
Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A)		soat
A1	Ta'lim nazariyalarini taqqoslash va zamonaviy ta'limda qo'llash yo'llarini tahlil qilish	4
A2	Behavioristik nazariyani o'qitish jarayonida qo'llash: misollar va tahlil	2
A3	Ijtimoiy o'rganish nazariyasining ta'lim jarayonidagi o'rni: Vygotsky va Bandura qarashlari asosida taqqoslash	4
A4	Piagetning rivojlanish bosqichlari va sxema shakllanishi nazariyasiga asoslangan o'quv faoliyatini loyihalash	2
A5	Til va tajriba asosida bilimni shakllantirish asosida konstruktivizm nazariyasiga asoslangan o'quv faoliyatini modellashtirish	2
A6	Eriksonning psixososial rivojlanish bosqichlari asosida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ta'lim vaziyatlarini loyihalash	4
A7	Gumanistik yondashuv asosida o'quvchi markazidagi va transformativ ta'lim faoliyatlarini loyihalash	2
A8	Bronfenbrennning ekologik rivojlanish modeli asosida o'quv muhitini tahlil qilish va loyihalash	4
A9	21-asrda ta'lim nazariyalarining o'quvchi identiteti va mustaqilligiga ta'sirini tahlil qilish	2
A10	21-asrda eng dolzarb ta'lim nazariyalarini aniqlash va shaxsiy ta'lim yondashuvini asoslab berish	4
jami		30

Mustaqil ta'lim (MT)

	Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va topshiriqlarni bajarish	106
1	Vaziyatli masalalar (kazuslar) tuzish	22
2	Berilgan manba'larni tarjima qilish	20
3	Amaliy topshiriqlarni bajarish	22
4	Anjumanga tezis yozish	20
5	Berilgan mustaqil ish mavzusini xisobot shaklida tayyorlash va himoya qilish	22

Ta'lim strategiyasi

Ta'lim nazariyasi fanini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida olib boriladi hamda ushbu kurs ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, taqdimotlar, mavzuga oid topshiriqlar va mustaqil ta'limni o'z ichiga oladi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarga zamonaviy ta'lim nazariyalari, ularning asosiy konsepsiyalari va amaliy qo'llanilishi haqida chuqur nazariy va amaliy bilimlar beriladi. Amaliy mashg'ulotlarda esa, talabalar mustaqil fikrlash, tahlil qilish, hamda o'z pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Talabalar quyidagi o'quv-uslubiy materiallardan foydalanish imkoniga egalar:

- Elektron shakldagi ma'ruza matnlari;
- Har bir mavzuga doir vizual taqdimotlar;
- Amaliy mashg'ulotlarga oid uslubiy ko'rsatmalar;
- Nazorat savollari va muhokama uchun topshiriqlar;
- Elektron darsliklar va qo'llanmalar.

Ma'ruzalar davomida o'qituvchi tomonidan mavzuga oid asosiy tushunchalar va nazariyalar taqdimotlar orqali yoritiladi. Har bir dars mavzusi bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar, darsliklar va qo'llanmalar orqali mavzuni mustaqil o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar pedagogik nazariyalarni tahlil qilish, real ta'lim vaziyatlariga tatbiq etish, hamda muammoli holatlarni hal qilish bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar. Har bir mavzu so'ngida nazorat savollari orqali mavzuni o'zlashtirish darajasi baholanadi.

Kursning barcha mavzulari to'liq o'zlashtirilgach, talaba yakuniy nazorat topshirish huquqiga ega bo'ladi.

Reyting baholash turlari	%	O'tkazish vaqti
Joriy baholash:	30	
Topshiriq 1 (1-3 amaliy ishlari)	5	O'quv jarayoni grafigi bo'yicha
Topshiriq 2 (4-6 amaliy ishlari)	5	
Topshiriq 3 (7-8 amaliy ishlari)	5	
Topshiriq 4 (9-11- amaliy ishlari)	5	
Topshiriq 5 (12-13 amaliy ishlari)	5	
Topshiriq 6 (14-15 amaliy ishlari)	5	
Oraliq baholash:	20	

Ta'lim nazariyasi

Oraliq nazorat yozma ish (ma'ruzachi o'qituvchi tomonidan qabul qilinadi).	10	O'quv jarayoni grafigi bo'yicha
Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi: - referat tayyorlash: 5 % - taqdimot tayyorlash va himoya qilish: 10 %	10	Semestr davomida
Yakuniy nazorat	50	
JAMI:	100	

Asosiy adabiyotlar:		
1. Dale H. Schunk Learning Theories An Educational 2017		
2. D.A.Zaripova., Ta'lim texnologiyalari., o'quv qo'llanma., 2019		
3. A.Xoliqov., Pedagogik mahorat., darslik., 2011-424b		
4. D.A.Zaripova., Ta'lim nazariyasi., o'quv qo'llanma., 2022-176b		
Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar		
1.	O'.Tolipov, D.Ro'zieva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat T.-2019.	
2.	В.Г.Закирова и др. Теория обучения: учебное пособие, Казань – 2018	
3.	Molly Zhou, David Brown Educational Learning Theories GALILEO, University System of Georgia 2017.	
4.	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 октябрдаги ПК-4851-сонли қарори.	
5.	O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PF — 5538-sonli "xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.	
Elektron manbalar:		
1.	https://www.educationindex.ru/articles/university-rankings/	
2.	https://gtmarket.ru/ratings/the-world-university-rankings	
3.	http://elibrary.ru/	

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Dastur mualliflari:	Zakirova Feruza Mahmudovana Salixova Muhayyo Shakirovna
E-mail:	muhayyoshakirovna@gmail.com
Tashkilot:	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, "Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedresi.
Taqrizchilar:	

Mazkur Sillabus Muhammad ai-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kengashining 2025-yil 29-04 dagi 10/20/2025 son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedrasining 2025-yil 18.04. dagi 12-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv uslubiy boshqarma

boshlig'i

Kafedra mudiri

Tuzuvchi(lar)

Handwritten signatures in blue ink, including a large signature at the top, and several smaller ones below it, some with horizontal lines.

A.K. Ergashev

D.A. Zaripova

F.M. Zakirova

M.Sh. Salixova